

TARKIBI

Abdisalomova M.A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 77 uy

Annotatsiya. *O‘zbekiston dorivor o‘simliklarni yig‘ish bo‘yicha uzoq tarixga ega bo‘lishiga qaramay, hattoki eng istiqbolli dorivor, oziq-ovqat, texnik va boshqa xom ashyo o‘simliklarining tabiiy populyasiyasining hozirgi holati to‘g‘risida ma‘lumotlar etishmasligi mavjud. Mavjud materiallarni tahlil qilish tabiatda mavjud dorivor o‘simliklarning zaxiralarining hozirgi holatini aniqlashtirish, xomashyosi yig‘ib olingandan so‘ng populyasiyalarini tiklanish tezligini (natijalarini) o‘rganish uchun keng ilmiy tadqiqot dasturini tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.*

Резюме. *Несмотря на многолетнюю историю сбора лекарственных растений в Узбекистане, информация о современном состоянии естественной популяции даже самых перспективных лекарственных, пищевых, технических и других сырьевых растений существует в дефиците. Анализ имеющихся материалов показал необходимость создания широкой программы научных исследований для выяснения современного состояния запасов лекарственных растений в природе, изучения скорости восстановления популяций (результатов) после заготовки сырья.*

Resume. *Despite the long history of medicinal plant collection in Uzbekistan, information on the current state of the natural population of even the most promising medicinal, food, technical and other raw material plants there is a shortage. The analysis of available materials showed the need to establish a wide scientific research program to clarify the current state of medicinal plant stocks in nature, to study the rate of population recovery (results) after harvesting raw materials.*

Kalit soʻzlar: Gul meva, choʻziq, tuxumsimon, koʻsakcha, ovalsimon va elleptik shaklda, introduksiya, vegetasiya, gʻunchalash, yalpi gullash, meva, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, askorbin kislota, organik kislatalar.

Ключевые слова: Цветок, плод, продолговатый, яйцевидный, яйцевидный, овально-эллиптический, интродукция, вегетация, бутонизация, массовое цветение, плоды, пищевые добавки, флавоноиды, аскорбиновая кислота, органические кислоты.

Key words: Flower, fruit, oblong, ovoid, ovate, oval and elliptic, introduction, vegetation, budding, gross flowering, fruit, food additives, flavonoids, ascorbic acid, organic acids.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida «farmasevtika sanoatini rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari bilan taʼminlash...» 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor oʻsimliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarorlari qabul qilindi [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Dalachoy turlarining turli iqlim sharoitlaridagi morfo-biologik xususiyatlarini asoslash, fitokimyoviy tarkibini aniqlash, xomashyo yetishtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

N. scabrum L. - Qizilpoycha. Koʻp yillik oʻt. Boʻyi 20 - 40 sm. Poya va shoxlari gʻadir-budur. Barglari uzunchoq - qalami yoki nashtarsimon, 10 -15 mm. Barg qoʻltigʻidan shoxchalar chiqqan. Toʻpguli qalqonsimon-roʻvak May - iyul oylarida gullab urugʻlaydi. Adir va togʻlarning toshli va shagʻalli yerlarida oʻsadi.

Oʻsimlik tarkibida alkaloid, efir moyi, kumarin, kotexin 18%, saponin, vitamin C, P, oshlovchi moddalar va flavonoidlar 5,1% mavjud.

Ilmiy medisinada dalachoy oʻsimligining dorivor preparatlari (damlama, nastoyka, suyuq ekstrakt, imanin preparati) meʼda-ichak (kolit, ich ketishi), ogʻiz boʻshligʻi (gingivit, stomatit) kasalliklari hamda II va III darajali kuyishlarni

davolashda ishlatiladi. Xalq tabobatida yer ustki organlari sarg'ayma xastaligini davolashda (qaynatmasi) qo'llaniladi.

***H. perforatum* L.** – Teshik bargli dalachoy. *H. perforatum* ko'p yillik o'tsimon bo'lib, uning balandligi 30-100 sm gacha boradi. Poyasi tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan, silindrik shaklda bo'ladi. Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan bo'lib, ovalsimon va elleptik shaklda, bandsiz poyada joylashgan. Barglarida kam miqdorda yaltirab turadigan qoramtir bezli tuklari mavjud. Gul a'zolari erkin aktinomorf, gulkosasi to'kilmaydigan besh a'zoli, gultoji ham beshta, gultoji barglari och sariq rangda, changchilari ko'p, ko'pincha ularning soni 50-60 donagacha boradi. Changchilar asosida birlashib uch to'plamda joylashadi. Tugunchasi tuxumsimon bo'lib uning uzunligi 3-5 mm ga boradi. Ko'p miqdordagi gullari ro'vaksimon to'pgulga birlashgan. Mevasi cho'ziq tuxumsimon ko'sakcha bo'lib, uzunligi 6 mm va eni 5 mm gacha boradi. Urug'i juda mayda mevada ko'p miqdorda joylashadi.

Dorivorlik xususiyatlari. Dalachoy tarkibidagi giperforin antimikrob ta'sir qilish xususiyatiga ega va unda bakterial aktivlik faoliyati mavjud, shu sababli ular tillasimon stafilokokklarga qarshi kurashda samarali natijalarni beradi, giperisinining deyarli 88%, flavonoidlarning 51% to'pgullar tarkibida uchraydi. Bu esa dalachoyning boshqa organlaridagiga nisbatan ancha ko'pligini bildiradi. Dalachoy kuchli adaptoganlik xususiyatiga ega. Ya'ni u huddi Jen-shen kabi organizmni tetiklashtiradi, imunitetni oshiradi. Dalachoy ta'siri natijasida organizmlarning jismoniy va ruhiy tetikligi ortadi. Yuqumli kasalliklarga nisbatan chidamli bo'ladi. Undan kuchli shamollashlarni davolashda foydalaniladi. Uning siydik haydovchi va parazit qurtlarga qarshi qo'llash mumkinligi isbotlangan [4,5,6,7,8].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. O'simliklarning fitokimyoviy tarkibini aniqlashda O'simlik moddalari kimyosi instituti xodimlari bilan birgalikda Flavonoidlar laboratoriyasida olib borildi. Barcha kimyoviy tahlillar Davlat farmakopeyasi XII nashrida bayon etilgan usullar orqali olib borildi [2, 3].

Natija va ularning tahlili. Tahlil jarayonida, o'simlikning g'unchalash, gullash, hamda ildizidagi oshlovchi moddalar, organik kislotalar, flavonoidlar

hamda askorbin kislotasining miqdori aniqlandi. Olingan natijalar 1-2 jadvallarda keltirildi. Tahlillardan shu narsa aniq bo‘ldiki, oshlovchi moddalarning eng ko‘p miqdori gullash fazasida kuzatilib, 9,79 % *H. perforatumda*, 9,68 *H. scabrumda* kuzatildi. Bu ko‘rsatgich *H. perforatumning* shonalash davrida 7,55% va ildizida 7,65% ga teng bo‘ldi. *H. scabrumda* esa 6,93% ildizida 6,87% ni tashkil etdi.

Organik kislotalarning ham nisbatan ortiq miqdori gullash davriga to‘g‘ri kelib, 1,46% *H. perforatumda*, *H. scabrumda* esa 156% tashkil etdi. Flavonoidlar tarkibini o‘rganishda esa, bu moddalarning eng ko‘p miqdori g‘unchalash fazasida kuzatilib, 3,40% *H. perforatumda*, *H. scabrumda* esa 2,87 % ga teng bo‘ldi. Bu ko‘rsatgich gullash fazasida *H. perforatumda*, 0,47% *H. scabrumda* esa 0,69 % ni va ildiz tarkibida esa *H. perforatumda*, 1,15% ni *H. scabrumda* esa 1,26 % ni tashkil etdi. Askorbin kislotasining nisbatan yuqori ko‘rsatgichi g‘unchalash fazasida kuzatildi va *H. perforatumda*, 0,012 (12,8 mg/ 100 g) ga *H. scabrumda* esa 0,011 (12,8 mg/ 100 g) teng bo‘ldi. Askorbin kislotasi gullash fazasida *H. perforatumda* 0,010 (10,2 mg/100 g), *H. scabrumda* esa 0,010 (10,7 mg/100 g), va ildizi tarkibida eng kam miqdorda kuzatilib *H.perforatumda*, 0,0078 (7,83 mg/100g) ga teng *scabrumda* esa 0,0068 (6,82 mg/100g) bo‘lganligi aniqlandi.

Demak, yuqoridagi tahlillar natijasidan shu narsa aniq bo‘ldiki oshlovchi moddalarni olish maqsadida asosan dalachoy turlarining gullagan fazasidan foydalanish va askorbin kislotasini, flavonoidlarni ajratib olishda g‘unchalash fazasiga kirganda foydalanish maqsadga muvofiqdir[9,10].

1-jadval

***H. perforatumni* fitokimyoviy tarkibi**

Organlarda moddalarni to‘planishi	Biologik aktiv moddalar, tarkibi %				
	Namlik	Oshlovchi moddalar	Organik kislotalar	Flavonoidlar	Askorbin kislota
G‘unchalash	6,34	7,55	1,28	3,40	0,012

					(12,8mg/100g)
Gullash	5,72	9,79	1,46	0,47	0,010 (10,2mg/100g)
Ildiz	7,51	7,65	1,15	0,49	0,0078 (7,83mg/100g)

2-jadval

***H. scabrumni* fitokimyoviy tarkibi**

Organlarda moddalarni to'planishi	Biologik aktiv moddalar, tarkibi %				
	Namlik	Oshlovchi moddalar	Organik kislotalar	Flavonoidlar	Askorbin kislota
G'unchalash	6,45	6,93	1,37	2,87	0,011 (11,8mg/100g)
Gullash	5,82	9,68	1,56	0,69	0,010 (10,7mg/100g)
Ildiz	6,98	6,87	1,26	0,38	0,0068 (6,82mg/100g)

Adabiyotlarda yozilishicha dalachoy o'simligidan xomashyo gullagan vaqti va hali mevasi pishib yetilmagan vaqti o'simlikning 25-30 sm yuqori qismidin tayyorlash maqulligi yozilgan.

Xulosa Bizning xulosamiz olingan tahlillarimiz asosida ushbu dorivor o‘simliklarni yalpi g‘unchalash va gullash fazasida xomashyo olish mumkin. Shuni ham ta’kidlash lozimki, introduksiya sharoitida madaniylashtirgan dalachoy ildizidan farmasevtika sanoati uchun zarur bo‘lgan kimyoviy elementlarni olishda foydalanish imkoni mavjud.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 майда қабул қилинган “Доривор ўсимликларни маданий ҳолда етиштириш ва қайта ишлаш ҳамда даволашда улардан кенг фойдаланишни ташкил етиш”даги 251 сон қарори. Тошкент. 2022.
2. Государственная фармакопея. XI издание. Выпуск 1. Общие методы анализа. 1987. М. С. 285.
3. Государственная фармакопея. XI издание. Выпуск 2. Общие методы анализа. 1987. М. С. 295-324.
4. Begmatova M., O‘ralova S. Subject: some biological characteristics of cherry (*Hypericum perforatum* L) planted in different crop schemes //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 51-58.
5. Бегматова М. Х., Уроқов А. У. Лекарственные свойства и фитохимический состав условиях *Hypericum perforatum* интродукции //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 177-182.
6. Бегматова М. Х., Мусурмонова Н. Х. *Hypericum perforatum* изучен в почвенно-климатических условиях при условии интродукции //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 183-186.
7. Фарманов Н. и др. Далачой (*Hypericum perforatum* L.) ни дориворлик хусусиятлари ва кимёвий таркиби //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-64.
8. Бегматова М.Х. Далачой (*Hypericum perforatum* L.) нинг морфо-биологик хусусиятлари. Диссертация // Самарканд 2021 й.-127 б.
9. Hamdamov, I., Hamdamova, E. I., Suvonova, G. A., & Begmatova, M. Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi. Botanika qismi) Toshkent-2017 y, 245-247.

10. Begmatova M. et al. Technology of Cultivation of Medicinal Preparation “Hypericum Perforatum I” //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 510. – C. 01020.